



# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

# Korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4

69 498



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlar

3 258



Oilaviy korxonalar

536



Unitar korxonalar

12 855



Xususiy korxonalar

226



Aksiyadorlik jamiyatlari


425



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar–dekabr oylarida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar–dekabr oylarida, birlikda)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



**8,2** foizga oshdi




**8,7** foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **3,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **5,8** foizga pasaydi




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,1 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**16,7 foizga oshdi**



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**19,3 foizga oshdi**




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **17,4 foizga oshdi**



## Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **1,1 foizga oshdi**




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 15,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 0,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 21,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 7,1 ming tani tashkil etib, ulardan 6,9 mingtasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,7 mingtaga yoki 111,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 1 031 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



# Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 254	677	577
Qozog'iston Respublikasi	664	296	368
Ozarbayjon Respublikasi	158	50	108
Ukraina Respublikasi	100	51	49
Qirg'iz Respublikasi	83	31	52
Tojikiston Respublikasi	81	37	44
Turkmaniston Respublikasi	61	22	39
Belarus Respublikasi	54	25	29
Armaniston Respublikasi	24	16	8
Moldova Respublikasi	17	5	12

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Toshkent shahri</b>	<b>6 918</b>	<b>2 870</b>	<b>4 048</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Uchtepa</b>	<b>222</b>	<b>81</b>	<b>141</b>
<b>Bektemir</b>	<b>164</b>	<b>93</b>	<b>71</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>896</b>	<b>376</b>	<b>520</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>862</b>	<b>370</b>	<b>492</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1 180</b>	<b>388</b>	<b>792</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>484</b>	<b>234</b>	<b>250</b>
<b>Olmazor</b>	<b>373</b>	<b>206</b>	<b>167</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>306</b>	<b>157</b>	<b>149</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1 102</b>	<b>418</b>	<b>684</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>552</b>	<b>252</b>	<b>300</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>777</b>	<b>295</b>	<b>482</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 180 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 102 ta (15,9 %) hamda Yunusobod tumanlarida 896 tani (12,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Sirg'ali – 306 ta (4,4 %), Uchtepa – 222 ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 164 tani (2,4 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,2 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1%), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,9 %), Uchtepa – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,7 %), Mirobod – (8,6 %), Yashnobod – (7,8 %), Sirg'ali – (6,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,3 %), Yunusobod – (11,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Shayxontohur – (10,1 %), Olmazor – (10,0 %), Uchtepa – (9,8 %), Yashnobod – (8,2 %), Mirobod – (8,1%), Yakkasaroy – (7,7 %), Sirg'ali – (7,3 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,6 %) tashkil etgan.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Olmazor – (14,1 %), Shayxontohur – (13,9 %), Yunusobod – (11,2 %), Yashnobod – (10,1 %), Uchtepa – (9,4 %), Chilonzor – (9,1 %), Sirg'ali – (8,7 %), Mirzo Ulug'bek – (8,0 %), Yakkasaroy – (7,1 %), Mirobod – (4,5 %) hamda Bektemir tumanlarida (3,9 %) tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**